



## Surxondaryo viloyatida chakana va ulgurji savdo tovar aylanmasi

2025-yil yanvar-mart dastlabki ma'lumot

### I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

### II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

### III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

### IV. METAMA'LUMOTLAR

### V. ALOQADOR BOSHQA HAVOLALAR


### I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

2025-yil 1-aprel holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 5 158 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 72 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 5 086 tani tashkil qildi.

2025-yilning yanvar-mart oyida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 5 847,1 mlrd so'mni tashkil etib, 2024-yilning yanvar-mart oyiga nisbatan 108,3% ga yetdi.


Jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 227,1 mlrd so'mni (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 129,8%), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining tovar aylanmasi 5 620,0 mlrd so'm (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 107,6 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 1 231,2 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 112,4 %) tashkil etdi.

#### Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati (%da)



Mavzuga doir havola:[Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati \(oylik\)](#)

### Chakana savdo aylanmasi asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (ulushi foizda)



■ Yirik korxonalar ■ Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ■ Uyushmagan savdo


## II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

2025-yil 1-aprel holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 2 375 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 16 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 2 359 tani tashkil qildi.

Viloyat bo'yicha 2025-yilning yanvar-mart oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi 2 226,9 mlrd so'mni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 7,6 % ga o'sdi.

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi umumiy hajmi 2 027,3 mlrd so'mni tashkil qilib, 2024-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 105,4 % ga to'g'ri keldi. Viloyatda jami ulgurji savdo hajmidagi ulushi 91,0 % ni tashkil qildi.

### Ulgurji savdo hajmi dinamikasi (mlrd so'm)



Mavzuga doir havola:[Ulgurji savdo hajmi \(oylik\)](#)

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalarning eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar Uzun (17,5m.), Denov (4,3m.), Angor (2,3 m.), Boysun (153,5 %) tumanlarida va Termiz shahrida (129,2 %) kuzatildi.

### Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)




Mavzuga doir havola:[Ulgurji savdo hajmi o'sish sur'ati \(oylik\)](#)

### III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO HAJMI

2025-yil 1-aprel holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni 1 473 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 1 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 1 472 tani tashkil qildi.

2025-yilning yanvar-mart oyida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 1 904,4 mlrd so'mga yetdi. 2024-yilning mos davriga nisbatan 110,7 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 99,7 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.

### Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)



2024-y.

2025-y.



## IV. METAMA'LUMOTLAR

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlari, shuningdek, xalqaro ko'rsatmalar va tavsiyalar "Milliy hisoblar tizimi – 2008", "Chakana va ulgurji savdo statistikasi bo'yicha xalqaro tavsiyalar" (BMT, 2008), Chakana tovar aylanmasining statistik kuzatuvi va uning miqdoriy ko'rsatkichini hisoblash bo'yicha uslubiy tavsiyalar hisobga olingan (MDH qo'mitasi, 2011) holda ishlataliladi.

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda Norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlari natijalarini qo'shgan holda hisoblangan.

## V. ALOQADOR BOSHQA HAVOLALAR

[Ulgurji savdo hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Ulgurji savdo aylanmasining o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Chakana savdo aylanmasi hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Aholijon boshiga chakana savdo hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Aholijon boshigachakanasavdohajmio'sishsur'ati \(hududlarkesimida, oylik\)](#)

[Ovgatlanish korxonalari savdo hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Ovgatlanish korxonalari savdo hajmi o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

<b>Chop etishga mas'ul:</b> Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo'limi	<b>Bo'lim boshlig'i:</b> A.Dusnazarov Tel: +998554518000 (7540)	<b>Ijrochi:</b> I. Yusupova Tel: +998554518000 (7541) e-pochta:info@surxonstat.uz	<b>Manzil:</b> 190108, Termiz sh. at-Termiziy ko'chasi,7-uy,
---	---	---	---